6. Aholini suv bilan ta‘minlaydigan bosh ariqlar va suv havzalarida kasallik tarqalmasligi uchun suvning bir joyda uzoq muddat saqlanmasligini ta‘minlash;



7. Shaharga har hafta suv yuborilishini yo‘lga qo‘yish;
8. Qushxonalarni toza holatda saqlashni tashkil etish;
9. Nonvoyxona, choyxona va oshxonalarning tozaligiga qat’iy rioya qilish;
10. Karvonsaroy va bozorlardagi hojatxonalarda havo almashuv tizimini yo‘lga qo‘yish.

Amirlik ma’muriyati bu talablarni qabul qilib, mirshabboshiga tegishli ko‘rsatma beradi va bu ishlarning nazoratini amalga oshirish maqsadida o‘n olti kishini ajratadi. Rus manzilgohlarida bunday tartiblarga rioya qilish shahar boshlig‘i va maxsus tashkil etilgan sanitariya-ijroiya komissiyasi vakolati ostida amalga oshirilgan.

MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi sanitar-epidemiologik holatlar muhim ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatadi. Siyosiy agentlikning bunday takliflarni berishidan maqsad Buxoro amirligi Afg‘oniston va Turkiston general-gubernatorligi bilan chegaradosh bo‘lganligi sababli, amirlikda vabo tarqalishi kuzatilsa, bu hol general-gubernatorlik viloyatlaridagi rus aholisiga ham o‘tish xavfi mavjudligidan ogohlantirish bo‘lgan. Buxoro ma’murlari shahar ichidagi qabristonlarni yopish kabi diniy va an’anaviy qarashlar bilan bog‘liq masalalarga o‘ta ehtiyotkorlik bilan yondashganlar, bu esa mintaqada sanitar islohotlarning o‘ziga xos qiyinchiliklar bilan kechganini ko‘rsatadi. Rus siyosiy agentligi va amirlik qo‘shbegisi o‘rtasida olib borilgan yozishmalar esa hududda sanitar-epidemiologik xavfning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning qay darajada tashkil etilganligi, bu kabi masalalarni hal etishda mahalliy va chor hukumati vakillarining o‘zaro manfaatli hamkorligini dalillaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida sanitariya-epidemiologik masalalar muhim davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan. Epidemik kasalliklarning tarqalish xavfi amirlik ma’muriyati va rus siyosiy agentligini o‘zaro hamkorlikda chora-tadbirlar ishlab chiqishga undagan. Bozorlar, karvonsaroylar, madrasalar, qabristonlar hamda suv inshootlarida sanitariya nazoratining kuchaytirilishi, botqoqliklarni quritish, karantin punktlarini tashkil etish kabi tadbirlar epidemiyalarning oldini olishga qaratilgan muhim choralar sifatida namoyon bo‘lgan. Arxiv manbalari shuni ko‘rsatadiki, sanitariya tadbirlarining amalga oshirilishida muayyan tizimli hamkorlik shakllangan bo‘lib, bu jarayonlar Buxoro amirligida sog‘liqni saqlash va jamoat gigiyenasi masalalariga bosqichma-bosqich yondashuv shakllanayotganidan dalolat beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zR MDA I-3-fond, 1-ro‘yxat, 199-ish, 76-varaq.
2. Buxorodagi rus siyosiy agenti V.I. Ignatevning 1900-yil 3-iyulda Buxoro hukumati vakillari nomiga yo‘llagan №3271 raqamli xati. O‘zR MDA I-3-fond, 1-ro‘yxat, 199-ish, 32–33-varaqlar.
3. Buxoro hukumati vakillarining 1900-yil 6-iyulda Buxorodagi rus siyosiy agenti V.I. Ignatev nomiga yo‘llagan javob xati. O‘zR MDA I-3-fond, 1-ro‘yxat, 199-ish, 68-varaq.
4. Buxorodagi rus siyosiy agenti V.I. Ignatevning 1896-yil 16-sentyabrda Buxoro amirligi qo‘shbegisi Jon Mirzobiy nomiga yo‘llagan №2851 raqamli xati. O‘zR MDA I-3-fond, 1-ro‘yxat, 118-ish, 209–210-varaqlar.
5. O‘zR MDA I-3-fond, 1-ro‘yxat, 555-ish, 3-varaq.
6. Buxoro amirligi qo‘shbegisining 1914-yil 13-avgustda Buxorodagi rus siyosiy agenti nomiga yo‘llagan №2018 raqamli xati. O‘zR MDA I-3-fond, 1-ro‘yxat, 684-ish, 5-varaq.
7. Buxorodagi rus siyosiy agentining 1900-yil 4-iyulda Buxorodagi rus-tuzem shifoxonasi shifokori nomiga yo‘llagan №3295 raqamli xati. O‘zR MDA I-3-fond, 1-ro‘yxat, 199-ish, 43-varaq.
8. Buxorodagi rus-tuzem shifoxonasi boshqaruvchisi bosh shifokor I.F. Penznyakovning 1900-yil 5-iyulda Buxorodagi rus siyosiy agenti nomiga yo‘llagan №123 raqamli xati. O‘zR MDA I-3-fond, 1-ro‘yxat, 199-ish, 55–56-varaqlar.

worldjournal.uz



SURUNKALI GASTRIT: ETIOLOGIYA, PATOGENEZ, KLINIK MANZARA, TASHXIS VA DAVOLASH TAMOYILLARI

Davlatova Mayram Sulaymonovna

Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya. Surunkali gastrit oshqozon shilliq qavatining uzoq davom etuvchi yallig'lanish kasalligi bo'lib, zamonaviy gastroenterologiyada keng tarqalgan muammolardan biri hisoblanadi. Kasallik ko'pincha sekin rivojlanib, uzoq vaqt davomida yashirin kechishi mumkin. Surunkali gastritning asosiy etiologik omillari qatoriga *Helicobacter pylori* infeksiyasi, noto'g'ri ovqatlanish, stress, dori vositalarini nazoratsiz qabul qilish va zararli odatlar kiradi. Ushbu maqolada surunkali gastritning kelib chiqish sabablari, patogenез mexanizmlari, klinik belgilari, tashxislash usullari hamda zamonaviy davolash va profilaktika yondashuvlari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: surunkali gastrit, *Helicobacter pylori*, oshqozon shilliq qavati, tashxis, davolash.

ХРОНИЧЕСКИЙ ГАСТРИТ: ЭТИОЛОГИЯ, ПАТОГЕНЕЗ, КЛИНИЧЕСКАЯ КАРТИНА, ДИАГНОСТИКА И ПРИНЦИПЫ ЛЕЧЕНИЯ

Аннотация. Хронический гастрит является длительным воспалительным заболеванием слизистой оболочки желудка и представляет собой одну из наиболее распространенных проблем в современной гастроэнтерологии. Заболевание часто развивается медленно и может в течение длительного времени протекать латентно. В число основных этиологических факторов хронического гастрита входят инфекция *Helicobacter pylori*, неправильное питание, стресс, неконтролируемый прием лекарственных средств и вредные привычки. В данной статье подробно рассматриваются причины возникновения, механизмы патогенеза, клинические проявления, методы диагностики, а также современные подходы к лечению и профилактике хронического гастрита.

Ключевые слова: хронический гастрит, *Helicobacter pylori*, слизистая оболочка желудка, диагностика, лечение.

CHRONIC GASTRITIS: ETIOLOGY, PATHOGENESIS, CLINICAL MANIFESTATIONS, DIAGNOSIS AND TREATMENT PRINCIPLES



Abstract. Chronic gastritis is a long-term inflammatory disease of the gastric mucosa and represents one of the most common problems in modern gastroenterology. The disease often develops slowly and may remain asymptomatic for a long period. The main etiological factors include *Helicobacter pylori* infection, improper diet, stress, uncontrolled use of medications, and harmful habits. This article provides a comprehensive analysis of the etiology, pathogenesis, clinical manifestations, diagnostic methods, and modern approaches to the treatment and prevention of chronic gastritis.

Keywords: chronic gastritis, *Helicobacter pylori*, gastric mucosa, diagnosis, treatment.

KIRISH

Surunkali gastrit — oshqozon shilliq qavatida uzoq davom etuvchi yallig‘lanish jarayoni bo‘lib, morfologik va funksional o‘zgarishlar bilan kechadi. Ushbu kasallik dunyo bo‘yicha millionlab odamlarni qamrab olgan bo‘lib, oshqozon-ichak tizimi kasalliklari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi [1]. Kasallikning asosiy xavfi shundaki, u ko‘pincha aniq klinik belgilar bermasdan kechadi va vaqt o‘tish bilan oshqozon yarasi, atrofik gastrit hamda oshqozon saratoni kabi og‘ir asoratlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin [2].

Surunkali gastritning kelib chiqishida bir nechta asosiy etiologik omillar ishtirok etadi. Eng muhim sabab sifatida *Helicobacter pylori* infeksiyasi ko‘rsatiladi. Ushbu bakteriya oshqozon shilliq qavatiga joylashib, yallig‘lanish jarayonini qo‘zg‘atadi va uzoq muddatda shilliq qavatning strukturasi buzadi [3]. Bundan tashqari, noto‘g‘ri va tartibsiz ovqatlanish, achchiq, yog‘li va qo‘pol ovqatlarni ko‘p iste‘mol qilish, alkogol va chekish, stress va psixoemotsional zo‘riqish hamda nosteroid yallig‘lanishga qarshi dorilarni (NYQP) uzoq muddat nazoratsiz qabul qilish kabi omillar ham muhim ahamiyatga ega [4].

METODOLOGIYA

Tadqiqot doirasida surunkali gastritning kelib chiqishi, patomorfologik mexanizmlari va davolash strategiyalarini o‘rganish maqsadida tizimli tahlil hamda klinik-qiyosiy baholash metodlaridan foydalanildi. Kasallikning patogenezi yoritishda shilliq qavatning himoya to‘sig‘i va agressiv omillar (kislota, pepsin, *H. pylori* fermentlari) o‘rtasidagi disbalans zamonaviy gastroenterologik modellar asosida tahlil qilindi. Tashxis usullarining samaradorligini qiyoslashda fibrogastroduodenoskopiya (FGDS), gistologik biopsiya, o‘tkir va surunkali fazalarni aniqlovchi laborator testlar (nafas testi, serologik usullar) klinik-diagnostik ahamiyati bo‘yicha guruhlashtirildi. Davolash tamoyillarining natijadorligi esa etiotrop (eradikatsiya), patogenetik va parhezoterapiya mezonlarining o‘zaro integratsiyasi orqali baholandi.



NATIJARLAR

Surunkali gastrit patogenezining asosini oshqozon shilliq qavati va agressiv omillar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi tashkil etadi. Normal sharoitda oshqozon shilliq qavati kislota va pepsin ta'siridan himoyalangan bo'ladi. Biroq zararli omillar ta'sirida ushbu himoya mexanizmlari zaiflashadi [1]. *Helicobacter pylori* ureaza fermenti orqali oshqozon muhitini o'zgartirib, epitelij hujayralariga zarar yetkazadi. Natijada yallig'lanish mediatorlari faollashadi va surunkali yallig'lanish jarayoni rivojlanadi [3].

Surunkali gastrit klinik-amaliy jihatdan bir nechta mezonlar asosida tasniflanadi:

- **A turi** — autoimmun gastrit [2];
- **B turi** — *Helicobacter pylori* bilan bog'liq gastrit [2];
- **C turi** — kimyoviy (refluks) gastrit [2].

Morfologik jihatdan esa yuzaki, atrofik va gipertrofik gastrit turlari ajratiladi. Kasallikning klinik belgilari uning turiga, bosqichiga va oshqozon kislotaliligiga bog'liq holda turlicha namoyon bo'ladi. Eng ko'p uchraydigan simptomlarga epigastral sohada og'riq yoki noqulaylik, ko'ngil aynishi, jig'ildon qaynashi, meteorizm va ishtahaning pasayishi kiradi [4]. Ba'zi bemorlarda kasallik uzoq vaqt davomida simptomsiz kechishi mumkin [5].

Surunkali gastritni aniqlashda instrumental va laborator tekshiruvlar o'tkazildi. Asosiy tashxislash usuli fibrogastroduodenoskopiya (FGDS) bo'lib, ushbu usul orqali oshqozon shilliq qavatining holatini bevosita baholash va gistologik tekshiruv uchun biopsiya olish muvaffaqiyatli amalga oshirildi [2]. Laborator tekshiruvlar qatorida *Helicobacter pylori*ni aniqlash testlari, umumiy qon tahlili va biokimyoviy ko'rsatkichlar o'rganildi. Zamonaviy diagnostikada nafas testi va serologik usullar yuqori aniqlik ko'rsatdi [3].

Davolash natijalari shuni ko'rsatdiki, surunkali gastritni muolaja qilish kompleks va individual yondashuvni talab etadi [1]. Agar *Helicobacter pylori* aniqlansa, maxsus eradikatsion terapiya o'tkaziladi. Bundan tashqari, kislotalilikni me'yorlashtiruvchidorilar (antatsidlar, IPN), gastroprotektorlar va maxsus tayyorlangan parhez muhim o'rin tutadi [4]. Parhez surunkali gastritni davolashning ajralmas qismi bo'lib, bemorlarga achchiq, qovurilgan va qo'pol ovqatlardan voz kechish, ovqatni oz-ozdan, lekin tez-tez qabul qilish buyurildi [5]. Stressni kamaytirish, zararli odatlardan voz kechish va jismoniy faollik oshqozon shilliq qavatining tiklanishiga (regeneratsiyasiga) ijobiy ta'sir ko'rsatdi [6].

MUHOKAMA



Surunkali gastrit bugungi kunda keng tarqalgan bo'lishiga qaramay, ko'pincha bemorlar tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu kasallikning erta aniqlanishi va to'g'ri davolanishi kelajakda oshqozon saratoni va og'ir proliferativ o'zgarishlarning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega [2]. Muhokama jarayonida shuni alohida ta'kidlash lozimki, *Helicobacter pylori* bilan bog'liq gastritni (B turi) davolashda kombinatsiyalashgan eradikatsion terapiya samaradorligi o'ta yuqori bo'lsa-da, bemorlarning dori qabul qilish tartibiga va davolash rejasiga to'liq rioya qilmasligi (komplayensning pastligi) yakuniy klinik natijani sezilarli darajada pasaytiradi [4]. Shu sababli, aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Surunkali gastrit oshqozon shilliq qavatining jiddiy va ko'p omilli kasalligi bo'lib, uzoq muddatli tizimli kuzatuv va kompleks davolashni talab etadi. Kasallikni erta bosqichlarda tashxislash, asosiy etiologik qo'zg'atuvchilarni (xususan, *H. pylori*) o'z vaqtida bartaraf etish va individual yondashuv asosida patogenetik terapiyani belgilash orqali og'ir destruktiv asoratlarning oldini olish mumkin. Profilaktika choralari, zararli odatlardan voz kechish va ratsional ovqatlanish tartibi ushbu kasallikni uzoq muddatli remissiya bosqichida nazorat qilishda eng muhim o'rinni tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Feldman M., Friedman L. Gastroenterology.
2. Kumar V. Robbins Basic Pathology.
3. Malfertheiner P. et al. *Helicobacter pylori* and gastritis.
4. McColl K.E.L. Clinical practice. *Helicobacter pylori* infection.
5. Talley N.J. Gastritis and dyspepsia.
6. Sleisenger and Fordtran's Gastrointestinal and Liver Disease.



YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIDA HAYOT TARZINING ROLI

Sharipova Sharofat Maxsudovna

Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya. Yurak-qon tomir kasalliklari dunyo miqyosida o'lim va mehnatga layoqatsizlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada yurak-qon tomir kasalliklarining kelib chiqishi, rivojlanishi va asoratlarida hayot tarzi omillarining o'rni chuqur tahlil qilinadi. Noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikning yetishmasligi, zararli odatlar, psixoemotsional stress, uyqu buzilishlari va ekologik omillarning yurak-qon tomir tizimiga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali ushbu kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: yurak-qon tomir kasalliklari, hayot tarzi, arterial gipertenziya, ateroskleroz, jismoniy faollik, profilaktika.

РОЛЬ ОБРАЗА ЖИЗНИ ПРИ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ

Аннотация. Сердечно-сосудистые заболевания являются одной из ведущих причин смертности и инвалидности во всем мире. В данной статье проводится глубокий анализ роли факторов образа жизни в возникновении, развитии и осложнениях сердечно-сосудистых заболеваний. На основе научных источников освещается влияние неправильного питания, недостатка физической активности, вредных привычек, психоэмоционального стресса, нарушений сна и экологических факторов на сердечно-сосудистую систему. Также показаны пути профилактики и повышения эффективности лечения данных заболеваний посредством формирования здорового образа жизни.

Ключевые слова: сердечно-сосудистые заболевания, образ жизни, артериальная гипертензия, аteroskleroz, физическая активность, профилактика.

THE ROLE OF LIFESTYLE IN CARDIOVASCULAR DISEASES

Abstract. Cardiovascular diseases are among the leading causes of mortality and disability worldwide. This article provides an in-depth analysis of the role of lifestyle factors in the development, progression, and complications of cardiovascular diseases. The effects of unhealthy diet, physical inactivity, harmful habits, psycho-emotional stress, sleep disorders, and environmental factors on the cardiovascular system are discussed based on scientific evidence. The importance of adopting a



healthy lifestyle to prevent cardiovascular diseases and improve treatment outcomes is emphasized.

Keywords: cardiovascular diseases, lifestyle, arterial hypertension, atherosclerosis, physical activity, prevention.

KIRISH

Yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) XXI asrning eng dolzarb tibbiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili butun dunyoda sodir bo'layotgan o'limlarning qariyb uchdan bir qismi aynan yurak va qon tomir kasalliklari bilan bog'liq [1]. Ushbu kasalliklar nafaqat o'lim ko'rsatkichlarini oshiradi, balki uzoq muddatli nogironlik, mehnat qobiliyatining pasayishi va ijtimoiy-iqtisodiy yo'qotishlarga ham olib keladi.

Yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishida genetik moyillik muhim rol o'ynasa-da, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, asosiy xavf omillari hayot tarzi bilan bog'liqdir [2]. Urbanizatsiya, texnologiyalarning rivojlanishi, kamharakat turmush tarzi va noto'g'ri ovqatlanish odatlari yurak-qon tomir tizimiga katta yuklama bermoqda. Yurak-qon tomir kasalliklariga arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, miokard infarkti, insult, yurak yetishmovchiligi va periferik tomir kasalliklari kiradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi hayot tarzi omillarining YQTK patogenezi va profilaktikasidagi rolini tizimli o'rganishdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida hayot tarzi omillarining yurak-qon tomir tizimiga ta'sirini baholash uchun retrospektiv va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hamda yetakchi kardiologik assotsiatsiyalarning so'nggi ilmiy manbalari va statistik ma'lumotlari tahlil predmeti sifatida olindi. Hayot tarzi ko'rsatkichlari modifikatsiya qilinadigan xavf omillari (ovqatlanish ratsioni, jismoniy faollik darajasi, zararli odatlar, uyqu va stress faktorlari) bo'yicha guruhlariga ajratildi. Ushbu omillarning endotelial disfunktsiya va aterosklerotik jarayonlar bilan bog'liqligi kardiologiyaning zamonaviy patogenetik prinsiplari asosida qiyosiy-morfologik baholandi.

NATIJALAR

Yurak-qon tomir kasalliklarining umumiy patogenetik mexanizmlaridan biri — ateroskleroz jarayonidir [3]. Ateroskleroz qon tomirlar devorida lipidlar to'planishi va yallig'lanish jarayonlari bilan kechadi. Natijada tomir lümeni torayadi, qon oqimi buziladi va yurak mushagiga yetarli kislorod yetib bormaydi. Hayot tarzi omillari aynan shu jarayonning tezlashishida hal qiluvchi ahamiyatga ega [4].



Olingan natijalar modifikatsiya qilinadigan omillarning quyidagi ta'sir mexanizmlarini ko'rsatdi:

- **Ovqatlanish omillari:** Hayvon yog'lariga, trans-yog'larga va tez hazm bo'ladigan uglevodlarga boy ratsion qondagi umumiy xolesterin va past zichlikdagi lipoproteidlar (PZLP) miqdorini oshiradi [5]. Tuzni me'yoridan ortiq iste'mol qilish arterial gipertenziyaning rivojlanishiga sabab bo'lib, yurakka tushadigan yuklamani keskin oshiradi. Kunlik tuz iste'molini kamaytirish orqali qon bosimini sezilarli darajada pasaytirish aniqlangan [6]. Aksincha, sabzavotlar, mevalar, baliq mahsulotlari, o'simlik yog'lari va to'liq donli mahsulotlarga boy ratsion yurak-qon tomir salomatligini yaxshilaydi [5].
- **Gipodinamiya oqibatlari:** Jismoniy faollikning yetishmasligi semirish, qandli diabet, dislipidemiya va arterial gipertenziya bilan bevosita bog'liq [2]. Muntazam jismoniy mashqlar yurak mushagini kuchaytiradi, qon tomirlar elastikligini oshiradi. Haftasiga kamida 150–300 daqiqa o'rtacha intensivlikdagi jismoniy faollik yurak xuruji va insult xavfini kamaytirishi isbotlandi [1].
- **Zararli odatlar:** Nikotin va tamaki tutunidagi zaharli moddalar qon tomirlarning spazmini chaqirib, qon bosimini oshiradi va tromb hosil bo'lish xavfini kuchaytiradi [3]. Alkogolni me'yoridan ortiq iste'mol qilish yurak mushagining zararlanishiga, aritmiyalar va yurak yetishmovchiligiga olib keladi [4].
- **Stress va Uyqu omillari:** Surunkali stress holatida simpatik asab tizimi faollashib, adrenalin va kortizol gormonlarining ko'p miqdorda ajralishiga olib keladi [6]. Bu jarayon yurak urish tezligini oshiradi va qon bosimini ko'taradi [6]. Shuningdek, uyqu yetishmovchiligi arterial gipertenziya, yurak ritmining buzilishi va metabolik sindrom bilan bog'liq bo'lib, kuniga 7–8 soat sifatli uyqu normal faoliyatni ta'minlaydi [2, 1].

MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yurak-qon tomir kasalliklarining aksariyati hayot tarzi bilan chambarchas bog'liq. Ilmiy adabiyotlarda sog'lom turmush tarziga amal qilgan shaxslarda yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfi sezilarli darajada past ekani qayd etilgan [4]. Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash lozimki, YQTK patogenezida ateroskleroz va arterial gipertenziya zanjirini uzish faqatgina medikamentoz (dori-darmon) davolash bilan cheklanib qolmasligi kerak. Non-farmakologik yondashuv, ya'ni parhez va jismoniy faollikning kardiologik bemorlar tomonidan qat'iy bajarilishi dori vositalarining samarasini ikki barobargacha oshiradi. Profilaktik yondashuv faqat tibbiy davolashdan ko'ra iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan samaraliroq bo'lib, aholi salomatligini yaxshilashda muhim strategiya hisoblanadi.



XULOSA

Yurak-qon tomir kasalliklarida hayot tarzi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ovqatlanish odatlari, jismoniy faollik darajasi, zararli odatlar, stress va uyqu rejimi yurak-qon tomir tizimining holatini bevosita belgilaydi. Ushbu omillarni to'g'ri boshqarish (modifikatsiya qilish) orqali yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish, ularning og'ir asoratlarini kamaytirish va aholi umr davomiyligini oshirish mumkin. Shu bois sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va aholining kardiologik savodxonligini oshirish zamonaviy amaliy tibbiyotning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. Cardiovascular diseases. WHO, 2023.
2. Yusuf S. et al. Lifestyle and cardiovascular risk. The Lancet, 2020.
3. Braunwald E. Heart Disease. Elsevier, 2019.
4. Libby P. Atherosclerosis. Nature Reviews Cardiology, 2021.
5. Mozaffarian D. Diet and heart health. Circulation, 2022.
6. American Heart Association. Stress and cardiovascular disease, 2023.



MATHEMATICAL ASSESSMENT OF CYBERSECURITY RISKS IN THE DIGITAL ECONOMY: A QUANTITATIVE APPROACH TO FINANCIAL SYSTEM PROTECTION

Nurmatova Sevara Batirovna Tashkent Perfect University, Tashkent, Uzbekistan

Abdullayev Akmaljon Abdujalilovich "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. The rapid expansion of digital financial services creates both economic opportunity and systemic cybersecurity vulnerability. Quantifying the relationship between cyber-attack frequency, associated economic losses, and protective investment remains an open challenge in the literature. This paper introduces a straightforward mathematical framework — combining a loss function, an exponential risk-reduction model, and a return-on-security-investment (ROSI) formula — to measure and optimise cybersecurity spending in a digital economy context. The model is calibrated using empirical data from Uzbekistan's banking sector (2018–2023). Results show that a one-unit increase in the Cybersecurity Readiness Score (CRS) reduces expected annual losses by USD 3.4 million on average, and that the optimal security budget allocation lies between 8 % and 11 % of total IT expenditure. The framework offers financial institutions and regulators a transparent, data-grounded tool for evidence-based cybersecurity policy decisions.

Keywords: cybersecurity, digital economy, risk modelling, ROSI, financial systems, Uzbekistan, loss function, mathematical model.

МАТЕМАТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ: КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ ПОДХОД К ЗАЩИТЕ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация. Стремительное расширение цифровых финансовых услуг создает как экономические возможности, так и системную уязвимость в области кибербезопасности. Количественная оценка взаимосвязи между частотой кибератак, связанными с ними экономическими потерями и защитными инвестициями остается нерешенной задачей в литературе. В данной статье представлена простая математическая модель, сочетающая функцию потерь, экспоненциальную модель снижения рисков и формулу рентабельности инвестиций в безопасность (ROSI), для измерения и оптимизации расходов на кибербезопасность в контексте цифровой экономики. Модель откалибрована с использованием эмпирических данных банковского сектора Узбекистана (2018–2023 гг.). Результаты показывают, что увеличение индекса готовности к кибербезопасности (CRS) на одну единицу снижает ожидаемые годовые потери в среднем на 3.4 млн долларов США, а оптимальное распределение



бюджета безопасности составляет от 8 % до 11 % от общих расходов на ИТ. Предложенная модель предоставляет финансовым институтам и регулирующим органам прозрачный, основанный на данных инструмент для принятия обоснованных политических решений в сфере кибербезопасности.

Ключевые слова: кибербезопасность, цифровая экономика, моделирование рисков, ROSI, финансовые системы, Узбекистан, функция потерь, математическая модель.

RAQAMLI IQTISODIYOTDA KIBERXAVFSIZLIK RISKLARINI MATEMATIK BAHOLASH: MOLIYA TIZIMINI HIMOYA QILISHGA MIQDORIY YONDASHUV

Annotatsiya. Raqamli moliyaviy xizmatlarning jadal kengayishi ham iqtisodiy imkoniyatlarni, ham tizimli kiberxavfsizlik zaifliklarini yuzaga keltiradi. Kiberhujumlar chastotasi, ular bilan bog'liq iqtisodiy zararlar va himoya investitsiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni miqdoriy baholash ilmiy adabiyotlarda hamon dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida kiberxavfsizlik xarajatlarini o'lchash va optimallashtirish uchun zarar funksiyasi, eksponentsial xavfni kamaytirish modeli va xavfsizlik investitsiyalari rentabelligi (ROSI) formulasini birlashtirgan oddiy matematik model taklif etilgan. Model O'zbekiston bank sektori (2018–2023) empirik ma'lumotlari asosida kalibrlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Kiberxavfsizlikka tayyorlik indeksi (CRS) bir birlikka oshganda, kutilayotgan yillik zararlar o'rtacha 3.4 million AQSh dollariga kamayadi va xavfsizlik budjetining maqbul taqsimoti umumiy AT xarajatlarining 8 foizidan 11 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi. Ushbu model moliya institutlari va tartibga soluvchi organlarga kiberxavfsizlik siyosati bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilish uchun shaffof va ma'lumotlarga asoslangan vositani taqdim etadi.

Kalit so'zlar: kiberxavfsizlik, raqamli iqtisodiyot, risklarni modellashtirish, ROSI, moliya tizimlari, O'zbekiston, zarar funksiyasi, matematik model.

INTRODUCTION

Digital transformation has fundamentally altered the structure of modern economies. Online banking, electronic payment platforms, and cloud-based financial services have made capital flows faster, cheaper, and more accessible — yet they have simultaneously created new attack surfaces for cybercriminals. According to the International Monetary Fund, global financial-sector losses attributable to cyber incidents exceeded USD 12 billion in 2022, a figure nearly three times larger than five years earlier [1]. For emerging economies such as Uzbekistan, where the share of digital payments in total retail transactions grew from 21 % in 2018 to 73 % in 2023, the stakes are particularly high because protective infrastructure often lags behind adoption rates [2].



The academic literature on cybersecurity and economics has grown substantially over the past decade, yet a persistent gap remains: most studies either describe the problem qualitatively or rely on regression models that estimate past losses without providing actionable investment guidance. Gordon and Loeb [3] were among the first to formalise a security investment optimisation model, showing that firms should spend no more than 37 % of the expected loss on any single asset. Their model, however, was designed for a single firm and does not scale naturally to sector-level or national-level analysis. Subsequent extensions by Böhme and Schwartz [4] and Anderson et al. [5] added game-theoretic and insurance dimensions but kept the mathematical apparatus complex enough to limit practitioner uptake.

This paper proposes a simpler, transparent, and directly estimable mathematical framework suited to the needs of financial regulators and institutional risk managers in developing-economy settings. The core contribution is threefold. First, we define a composite Cybersecurity Readiness Score (CRS) that aggregates observable institutional indicators into a single index. Second, we specify an expected-loss function that links CRS to monetary damage in a mathematically tractable form. Third, we derive the optimal security budget share from a return-on-security-investment identity and validate all three components with six years of Uzbek banking-sector data. The remainder of the paper is organised as follows: the Methods section presents the mathematical model and data; the Results section reports parameter estimates, fitted loss curves, and optimal budget recommendations; the Discussion interprets findings in the policy context; and the Conclusion summarises contributions and limitations.

METHOD

The quantitative framework developed here rests on three building blocks: a Cybersecurity Readiness Score, an expected-loss function, and a return-on-security-investment optimisation condition. Each is described in turn, followed by an account of the data used for estimation.

Cybersecurity Readiness Score. Following established composite-index methodology [6], we define CRS as the equally weighted arithmetic mean of three normalised sub-indicators, each scaled to the interval [0, 1]:

$$\text{Formula (1): } \text{CRS} = (1 / 3) * (\text{TI} + \text{HR} + \text{RP})$$

where TI denotes the Technology Infrastructure sub-index (network redundancy, encryption coverage, patch-management compliance), HR the Human Resources sub-index (share of staff with recognised cybersecurity certification, hours of annual training per employee), and RP the Regulatory and Policy sub-index (number of enacted cybersecurity standards relative to best-practice benchmark). Each sub-index is computed by min-max normalisation across the sample, so that the



institution with the highest observed value receives a score of 1 and the lowest receives 0.

Expected-Loss Function. Empirical studies consistently show that cyber-incident losses decline at a diminishing rate as protective measures improve — a relationship well captured by a negative exponential form [7]. We therefore specify the expected annual loss L (in USD millions) as:

$$\text{Formula (2): } L(\text{CRS}) = L_0 * \exp(-k * \text{CRS})$$

where $L_0 > 0$ is the baseline expected loss when $\text{CRS} = 0$ (no protective measures in place) and $k > 0$ is a decay parameter reflecting how quickly losses fall as readiness improves. Taking the natural logarithm of both sides yields the linear regression form:

$$\text{Formula (3): } \ln(L) = \ln(L_0) - k * \text{CRS} + \text{epsilon}$$

which can be estimated by ordinary least squares (OLS). The marginal loss reduction from a one-unit improvement in CRS is derived as:

$$\text{Formula (4): } dL / d\text{CRS} = -k * L_0 * \exp(-k * \text{CRS})$$

This derivative is always negative, confirming that higher readiness reduces expected losses, and it approaches zero as CRS approaches unity, reflecting the economic reality of diminishing returns to security investment.

Return-on-Security-Investment Optimisation. Let S denote annual cybersecurity expenditure and let the reduction in expected losses attributable to a marginal increase in S be captured through the chain rule:

$$\text{Formula (5): } \text{ROSI} = (\text{Delta } L / \text{Delta } S) - 1 = (k * L(\text{CRS}) * \text{Delta } \text{CRS} / \text{Delta } S) - 1$$

A positive ROSI indicates that each additional dollar of security spending prevents more than one dollar of expected loss. Setting $\text{ROSI} = 0$ — the break-even condition — and solving for the optimal expenditure share $s^* = S^* / \text{IT_Budget}$ gives the policy-relevant recommendation:

$$\text{Formula (6): } s^* = [k * L_0 * \exp(-k * \text{CRS})] / (\text{unit cost of one Delta CRS point})$$

In practice, s^* is estimated by substituting fitted model parameters and observed average unit costs, yielding a concrete percentage of the IT budget that maximises net benefit from security investment.



Data. Annual institution-level data were collected for 68 banks and financial institutions operating in Uzbekistan over the period 2018–2023, producing 408 institution-year observations. Sources include the Central Bank of the Republic of Uzbekistan supervisory database, the Ministry of Digital Technologies' cybersecurity incident registry, and institutions' own audited risk reports [8, 9]. The three CRS sub-indicators were constructed from regulatory inspection records (TI), human-resource disclosures (HR), and compliance certificates (RP). Annual expected losses were proxies by total confirmed cyber-incident costs as reported in audited financial statements, covering direct remediation costs, regulatory fines, and estimated business-interruption losses. Table 1 presents descriptive statistics for all variables.

Variable	Mean	Std. Dev.	Min	Max	Unit
CRS (composite)	0.497	0.148	0.112	0.841	Index [0,1]
TI sub-index	0.521	0.163	0.089	0.901	Index [0,1]
HR sub-index	0.468	0.141	0.104	0.823	Index [0,1]
RP sub-index	0.502	0.157	0.118	0.799	Index [0,1]
Expected loss L	6.84	4.21	0.43	28.70	USD million
Security spend S	0.51	0.28	0.08	1.74	USD million
IT budget share s	6.3 %	2.7 %	1.8 %	14.2 %	Percent

Table 1. Descriptive Statistics — Uzbekistan Banking Sector, 2018–2023 (n = 408 institution-years)

Estimation followed three steps. Step 1: OLS estimation of Equation (3), the log-linear loss model, using institution and year fixed effects to control for unobserved heterogeneity. Step 2: substitution of fitted parameters into Equation (6) to derive s^* under observed average unit costs. Step 3: sensitivity analysis in which CRS was perturbed by ± 1 standard deviation to assess the stability of the optimal budget recommendation.

RESULTS

OLS estimation of the log-linear loss model using two-way fixed effects produced the results summarised in Table 2. The model fits the data well: the within-R² equals 0.871, indicating that 87.1 % of the within-institution, within-year variation in log losses is explained by variation in CRS alone. All coefficient estimates are statistically significant at the 1 % level.

Parameter	Estimate	Std. Error	t-stat	p-value
ln(L0) (intercept)	3.124	0.187	16.71	< 0.001
k (decay rate)	2.863	0.214	13.38	< 0.001
Institution FE	Yes	—	—	—



Year FE	Yes	—	—	—
Within-R2	0.871	—	—	—
Observations	408	—	—	—

Table 2. Fixed-Effects OLS Estimates — Log-Linear Loss Model (Dependent Variable: ln L)

The estimated baseline loss $L_0 = \exp(3.124)$ approx. USD 22.7 million represents the expected annual cyber-incident cost for a hypothetical institution with $CRS = 0$. The decay parameter $k = 2.863$ implies that each one-unit increase in CRS — equivalent to moving from the minimum to the maximum of the readiness scale — reduces expected losses by a factor of $\exp(-2.863)$ approx. 0.057, that is, to about 5.7 % of their baseline value. Evaluated at the sample mean $CRS = 0.497$, the marginal loss reduction from a 0.01-point CRS improvement is calculated as:

Formula (7): $dL / dCRS | (at CRS=0.497) = -2.863 * 22.7 * \exp(-2.863 * 0.497)$ approx. -USD 3.4 million

This means that, on average, a one-point improvement in the composite readiness score is associated with USD 3.4 million fewer losses per year — a substantively large figure relative to the sample mean loss of USD 6.84 million. Table 3 shows how expected losses vary across the CRS distribution, providing an intuitive picture of the fitted loss curve.

CRS Value	Fitted L (USD million)	Marginal Saving vs. Previous Row (USD million)	Interpretation
0.10	17.2	—	Very low readiness
0.20	13.1	4.1	Low readiness
0.30	9.9	3.2	Below average
0.40	7.6	2.3	Approaching average
0.50 (mean)	5.8	1.8	Average institution
0.60	4.4	1.4	Above average
0.70	3.3	1.1	High readiness
0.80	2.5	0.8	Very high readiness

Table 3. Fitted Expected Loss by CRS Level — Based on Exponential Loss Model



The fitted values in Table 3 confirm the diminishing-returns structure of the loss curve: moving from $CRS = 0.10$ to 0.20 saves USD 4.1 million per year, whereas the same improvement from 0.70 to 0.80 saves only USD 0.8 million. This non-linearity has direct implications for where additional investment yields the highest payoff.

Turning to the optimisation analysis, the average unit cost of increasing CRS by 0.01 point was estimated at USD 48,000 per institution per year, derived from the ratio of observed security expenditure changes to observed CRS changes in the panel. Substituting this figure and the model parameters into Equation (6) yields an optimal IT-budget security share of:

Formula (8): $s^* = [k * L(CRS_mean)] / (\text{unit cost} * IT_budget_mean)$ approx. 9.3 %

The 95 % confidence interval for s^* , derived through the sensitivity analysis (± 1 standard deviation perturbation of CRS), spans 7.8 % to 11.1 %. The sample mean observed share is 6.3 %, approximately three percentage points below the model optimum, indicating systematic underinvestment in cybersecurity across the Uzbek banking sector.

DISCUSSION

The central empirical finding — that Uzbek financial institutions invest roughly 6.3 % of their IT budgets in cybersecurity against a model-optimal range of 7.8 %–11.1 % — points to a persistent and economically costly protection gap. At the sample mean loss level of USD 6.84 million, closing this gap would be expected to reduce sector-wide annual losses by approximately USD 1.9–3.1 million per institution, or USD 130–210 million in aggregate across the 68 institutions in the sample. This figure is non-trivial relative to the Uzbek banking sector's reported net income of USD 1.8 billion in 2023 [10].

Why does underinvestment persist? Three mechanisms are plausible. First, information asymmetry: financial institutions often cannot observe whether their peers have been breached, reducing the competitive pressure to invest. Second, the "cyber-insurance substitution" problem, whereby institutions anticipate partial loss recovery from insurance products and rationally reduce direct spending on prevention. Third, short managerial planning horizons that discount multi-year benefits of readiness improvement against immediate budget pressures. All three mechanisms are well documented in the broader cybersecurity economics literature [5, 11] and appear operative in the Uzbek context based on qualitative information gathered during data collection.



